



**MAKTABGACHA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING KASBIY  
KOMPETENSIYASINI INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA  
RIVOJLANTIRISH**

**Ulug'berdiyeva Raxima Salohiddin qizi**

**Urolova Muslima G'ayrat qizi**

Termiz davlat pedagogika instituti talabalari

**ANNOTATSIYA.** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yo'nalishi talablarining kasbiy kompetensiyasini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish pedagogik zarurati tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'linda innovatsion metodlar, jumladan loyiha asosida ta'lim, muammoli o'qitish va STEAM yondashuvi kasbiy malakani oshirishda muhim ahamiyatga ega ekani ko'rsatildi. Shuningdek, kasbiy kompetensiyani baholashda yangi usullar va joriy etishdagi pedagogik muammolar ham ko'rib chiqildi. Tadqiqotda innovatsion yondashuvlar asosida kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirish uchun tizimli choralar zarurligi ta'kidlandi.

**ANNOTATION.** This article analyzes the pedagogical necessity of developing professional competence of preschool education students based on innovative approaches. It highlights the significance of innovative methods such as project-based learning, problem-based learning, and STEAM approach in enhancing professional skills. Additionally, new evaluation methods and pedagogical challenges in implementing professional competence are discussed. The study emphasizes the need for systematic measures to improve the quality of professional training through innovative approaches.

**АННОТАЦИЯ.** В данной статье анализируется педагогическая необходимость развития профессиональной компетентности студентов дошкольного образования на основе инновационных подходов. Подчеркивается значимость таких инновационных методов, как проектное обучение, проблемное обучение и STEAM-подход для повышения профессиональных навыков. Также рассматриваются новые методы оценки и педагогические проблемы внедрения профессиональной компетентности. Исследование акцентирует внимание на необходимости системных мер для повышения качества профессиональной подготовки с помощью инновационных подходов.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, pedagoglar, kasbiy kompetensiya, innovatsiya, pedagogik texnologiyalar, STEAM, yondashuv.

**Keywords:** preschool education, teachers, professional competence, innovation,



pedagogical technologies, STEAM, approach.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, педагоги, профессиональная компетентность, инновации, педагогические технологии, STEAM, подход.

Hozirgi kunda jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, texnologik va axborot sohasidagi o'zgarishlar ta'lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim sohasi bugungi kunda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilib, bu borada tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligini zamonaviy talablar asosida shakllantirish dolzarb masalaga aylanmoqda[10].

Maktabgacha ta'lim yo'nalishida faoliyat yurituvchi pedagoglardan nafaqat an'anaviy bilimlar, balki innovatsion fikrlash, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, ijodiy yondashuv va raqamli savodxonlik kabi kompetensiyalar ham talab etilmoqda. Zamonaviy maktabgacha ta'limda ta'lim-tarbiya jarayoni faqatgina nazariy bilimlarni o'rgatish bilan cheklanmasdan, balki bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishga hissa qo'shishi zarur. Buning uchun esa tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasi doimiy ravishda yangilanib borishi, innovatsion yondashuvlar asosida boyitilishi muhimdir. Shu nuqtai nazardan qaralganda, maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyasini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish masalasi pedagogik zarurat sifatida o'rganilishi lozim.

Kasbiy kompetensiya tushunchasi zamonaviy pedagogikada keng qo'llanilayotgan tushunchalardan biri bo'lib, u muayyan kasbga oid bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlarning uyg'unligini anglatadi. Bu tushuncha oddiygina bilimga ega bo'lishdan farqli o'laroq, olingan bilimlarni real hayotiy va kasbiy vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Xususan, maktabgacha ta'lim sohasi pedagoglari uchun kasbiy kompetensiya – bu bolalar bilan ishlashda psixologik, pedagogik, didaktik, kommunikativ va kasbiy malakalarning mukammal uyg'unligidir. Nazariy jihatdan kasbiy kompetensiyalar quyidagi asosiy tarkibiy qismlarga ega: kognitiv (bilimga oid), operativ (amalga oid), shaxsiy (axloqiy-psixologik), va kommunikativ. Bu tarkibiy qismlar tarbiyachi-pedagog faoliyatining turli jihatlarini qamrab oladi. Maktabgacha ta'limda bu kompetensiyalar, ayniqsa, bola rivojlanishiga individual yondashuv, o'yin orqali o'qitish, sog'lom psixologik muhit yaratish va ota-onalar bilan samarali hamkorlikni talab qiladi.

Zamonaviy kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda innovatsion yondashuvlarning o'rni beqiyosdir. Chunki, yangi pedagogik texnologiyalar, metodlar va vositalar ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, talabalarining faolligini oshirish va ularda tanqidiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi[9].



## Learning and Sustainable Innovation

Innovatsion yondashuvlar — bu an’anaviy o‘qitish shakl va metodlaridan farqli o‘laroq, yangi texnologiyalar, interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar orqali o‘rgatish, talabning mustaqil fikrlashiga asoslangan yondashuvlardir. Bu yondashuvlar kasbiy kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi asosiy vosita sifatida e’tirof etiladi. Maktabgacha ta’lim yo‘nalishidagi talabalar uchun innovatsion yondashuvlar orqali o‘qitish nafaqat bilim olish, balki bu bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llashni, kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishni, pedagogik muammolarni hal etish qobiliyatini shakllantirish imkonini beradi. Masalan, “Problemaga asoslangan o‘qitish”, “Dizayn fikrlash”, “Proyekt asosida o‘qitish” metodlari orqali talabalar ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi.

Innovatsion yondashuvlar pedagogik jarayonda quyidagi asosiy afzalliklarni ta’minlaydi:

- ta’limda individual yondashuvni amalga oshirish;
- talabning shaxsiy faolligini oshirish;
- tazariy bilim va amaliyot o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash;
- tanqidiy fikrlash va muammo yechish kompetensiyasini shakllantirish;
- zamonaviy texnologiyalarni pedagogik faoliyatga tatbiq etish.

Maktabgacha ta’lim tizimi jamiyatning eng muhim ijtimoiy institutlaridan biri bo‘lib, bolani har tomonlama rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi[8]. Shu sababli, bu sohaga tayyorlanayotgan talabalar o‘z kasbiy kompetensiyalarini chuqur o‘zlashtirishi, innovatsion yondashuvlarni to‘g‘ri qo‘llay olishi zarur. Pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyasi ularning kelajakdagi ish faoliyatida muvaffaqiyatli bo‘lishining asosiy omilidir. Maktabgacha ta’lim yo‘nalishidagi ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlar quyidagi pedagogik ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladi:

- bolalarning individual rivojlanish xususiyatlariga mos o‘qitish uslublarini qo‘llash;
- yangi pedagogik vazifalarni mustaqil hal qilish;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish;
- ota-onalar va pedagoglar o‘rtasida samarali kommunikatsiya o‘rnatish;
- yangi o‘quv metodik vositalarni ishlab chiqish va tatbiq etish.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, kasbiy kompetensiyani innovatsion yondashuv asosida shakllantirish – bu oddiy yangilik joriy etish emas, balki ta’lim mazmuni, shakli va



vositalarini to‘liq yangilash orqali pedagogik jarayonni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishdir[5].

Zamonaviy maktabgacha ta‘limda kasbiy kompetensiyani shakllantirish uchun qo‘llanilayotgan innovatsion metodlar quyidagi yo‘nalishlarda samarali natija bermoqda: loyiha asosida ta‘lim, muammoli vaziyatlar tahlili, rolli o‘yinlar, portfel asosida baholash, STEAM yondashuvi, interfaol metodlar (aqliy hujum, debat, klaster, “sinkveyn” va boshqalar).

Loyiha asosida ta‘lim (Project-Based Learning) – talabalarda real muammolarni hal qilish, jamoaviy ishlash, vaqtni boshqarish va ijodiy yondashuv kompetensiyalarini rivojlantirishda juda samaralidir. Bu uslub orqali talabalar o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha mustaqil mini-loyihalar tayyorlab, ularda nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirishga erishadi.

Muammoli o‘qitish (Problem-Based Learning) esa talabalarni tanqidiy fikrlash, tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilishga yo‘naltiradi. Bu metodda o‘qituvchi bilim manbai emas, balki yo‘l ko‘rsatuvchi sifatida ishtirok etadi. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tarbiyaviy vaziyatlar asosida tayyorlangan muammolar, talabalarni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega [6].

STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) yondashuvi maktabgacha ta‘limda ilm-fan va san‘at elementlarini uyg‘unlashtirib, bolalarning ko‘p qirrali rivojlanishiga yordam beradi. Bu yondashuv orqali pedagoglar nafaqat innovatsion texnologiyalarni o‘zlashtiradi, balki ijodiy fikrlashni ham rivojlantiradi[7].

Bugungi kunda maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi talablarining kasbiy kompetensiyasini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish pedagogik jarayon sifatini oshirish, ta‘lim mazmunini zamonaviylashtirish va talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorligini ta‘minlashda muhim omil hisoblanadi. Innovatsion yondashuvlarni ta‘lim jarayoniga joriy etish orqali pedagoglarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi, ularning kasbiy samaradorligi oshadi. Shu bois, maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi talabalarini kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda innovatsion metod va yondashuvlarni chuqur o‘zlashtirish, doimiy yangilash va amaliyotda qo‘llash ustuvor vazifa bo‘lishi lozim.

#### *Foydalanilgan adabiyotlar*

1. Yuldashev A. Pedagoglarning kasbiy kompetensiyasi va uni rivojlantirish usullari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti, 2021. – 256 b.



2. Karimova S. Innovasion pedagogika: nazariya va amaliyot // Ta'lim va Innovasiyalar jurnali. – 2022. – №5(2). – B. 45–53.
3. Islomov J. Maktabgacha ta'limda innovasion metodlarni tatbiq etish tajribasi // Pedagogika va Psixologiya jurnali. – 2023. – №8(1). – B. 78–84.
4. Mirzaev B. Kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda yangi yondashuvlar. – Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti Nashriyoti, 2020. – 198 b.
5. Shavkatovna, X. M. (2024). GENDER TENGLIKNING HUQUQIY VA IJTIMOIIY ASOSLARI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(35), 499-504.
6. Shavkatovna, X. M. (2024). GENDER YONDASHUV ASOSIDA TALABA-QIZLARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH. *Research Focus*, 3(11), 124-128.
7. Shavkatovna, X. M., & Qizi, S. R. B. (2024). INKLYUZIV TA'LIM: GLOBAL TAJRIBA VA O'ZBEKISTON MODELII. *Research Focus*, 3(11), 117-123.
8. Xolova M, Amirqulova M. QUALIFIED TEACHER–EFFECTIVE LESSON ORGANIZER. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE 2024 (Vol. 1, No. 12, pp. 285-289).
9. Xo'jamurodova, F., & Xolova, M. (2024). OILAVIY MUNOSABATLAR MUAMMOSINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI. In CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD (Vol. 1, No. 11, pp. 63-66).
10. Shavkatovna, X. M. (2023). DEVELOPMENT OF HEALTHY THINKING IN STUDENTS. *Academia Repository*, 4(10), 90-94.